

BAMBUK – SADOQAT TIMSOLI

Ibrohimova Ozoda Mirzadavlat qizi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti
Koreyashunoslik oliv maktabi
Filologiya va tillarni o'qitish: koreys tili
3-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: **DSc., prof., U.T.Saydazimova**

ANNOTATSIYA

Qadimgi koreys adabiyotida yaratilan ilk pxesol to'plamlariga kiritilgan hikoyalarda majoziy – to'qima obrazlar yetakchilik qiladi. Shunday hikoyalardan biri "Bambuk xonim"da insonlarning o'zaro munosabatlari, oila va jamiyat masalalari o'simliklar olami orqali yoritiladi. Bambuk xonim timsolida esa ayol kishining go'zalligi, sadoqati ayollar sha'ni tasvirlanadi.

Kalit so'zlar: sulolalar, qog'oz, amal, bambuk, qayrag'och, qurt.

АННОТАЦИЯ

В рассказах, вошедших в первые сборники пхесоль, созданные в двернекорейском литературе лидируют фигутивно – текстительные образы. В одном из таких рассказов "Бамбуковая дама" через мир растений освещаются человеческие отношения, проблемы семьи и общества. В образе бамбуковой дамы изображена красота женщины, верность и честь женщины.

Ключевые слова: династии, бумага, действие, бамбук, сосна, червь.

ABSTRACT

In the stories included in the first pxesol collections created in ancient Korean literature, figurative – textile images lead. In one of such stories, "Bamboo Lady", human relations, family and society issues are illuminated through the world of plants. In the image of the bamboo lady, the beauty of a woman, loyalty and honor of women are depicted.

Key words: dynasties, paper, action, bamboo, pine, worm.

KIRISH

Qadimgi koreys nasrida, xususan, ilk pxesol hikoyalarida uslub va shakl o'ziga xos xususiyat kasb etgan. Eng avvalo, mualliflar tomonidan ramziy – majoziy obrazlar, jumladan, allegoriyalar keng qo'llanilgan. Allegoriya – boshqa, o'zga va gapiraman so'zlaridan olingan bo'lib, majoz ma'nosini anglatadi. Pxesol mualliflari

hikoyalarida qahramon ruhiyatini ochib berishda to‘qima obrazlar yetakchilik qilgan. Zero, “...*hikoya mazmunini ochish vazifasini inson obrazi emas, aniq ramziy obrazlar, detallar, belgilar, shartli epizodlar bajaradi*”¹. Bu obrazlarda ular tarixiy voqelik asosida barcha zamonlar uchun teng taalluqli didaktik masalalarga e’tibor qaratishgan. Bu hikoyalarda berilgan g‘oyalar bugungi kunda ham ahamiyatini yo‘qotmagan.

Li Gok qalamiga mansub “Bambuk xonim” hikoyasida to‘qima obraz sifatida Bambuk gavdalanadi. Insonlarga xos xususiyatlar, qusurlar, illatlar, amal uchun kurash o‘simpliklar hamda o‘simpliklardan tayyorlangan buyumlar vositasida ochib berilgan. Muallif eng avvalo uning kelib chiqishi, ya’ni ajdodlar tarixiga e’tibor qaratadi:

*Xonim Bambuklar urug‘idan bo‘lib, uni Tayanch deb atashar ekan. U Veyshuy daryosi bo‘yida o‘sgan, Szyantaygunga sibizg‘a bo‘lib xizmat qilgan o‘sha Ulkan Bambukning qizi ekan. Ularning urug‘i esa Yosh Bambukdan tarqalgan ekan. Uning bobokaloni kuy va ohanglarni yaxshi farq qilar ekan va nay bo‘lib xizmat qila olarkan, shu bois Xuan-di uni kavlab olishni buyuribdi va musiqa ishlarini boshqaruvchi etib tayinlabdi. Farovonlik davrida yangragan Yuuning ajoyib sibizg‘a navolari uning avlodi ekan*².

Ma’lumki, Bambuk – graminealar oilasiga mansub, ko‘p yillik o‘simpliklarning katta turi. Ular o‘zining tez o‘sishi, kuchli poyasi va ko‘p qirrali foydalanishi bilan mashhur. Bambukning poyasi bo‘g‘imlar bilan ajralib turadi va juda bardoshlidir. Ular qurilishda, mebel ishlab chiqarishda va boshqa ko‘plab sohalarda ishlatiladi. Bambuk kuchli va keng ildiz tizimiga ega bo‘lib, tuproqni eroziyadan himoya qilishda muhim rol o‘ynaydi. Bambukning uzun va ingichka barglari bor. Ba’zi bambuk turlari juda kamdan-kam gullaydi, ba’zan bir necha yil yoki hatto o‘n yillar davomida gullamaydilar. Gullagandan so‘ng, o‘simplik o‘lishi mumkin³.

Bambukning mana shu xususiyatlarini muallif quydagi matnga joylashtiradi:

*Qadim zamonlarda Yosh Bambuk shimoldan, Kunlun tog‘laridan sharqqa kelgan ekan. Podsho Fu-si davrida u Teri bilan birga yozuv ishlarini boshqargan va bu borada katta yutuqlarga erishgan ekan. Avlodlari uning ishini davom ettirishibdi va tarixchilar bo‘lib yetishishibdi. Ammo Sin kulfatlari kelibdi va Li Sining yozishicha, kitoblarni kuydirishibdi va konfutsiychlarni tiriklayin yerga ko‘mishibdi. Yosh Bambukning urug‘i siyraklashib qolibdi*⁴.

¹ Соликонов У. Хозирги ўзбек ҳикояси: жанр мезонлари, талаб ва имкониятлари / Мўъжизалар сири. – Т.: Адаб. 2013. – Б. 12.

² Saydazimova U.T., Choy So Yong, Xvan L.B. va boshq. Klassik koreys nasri antologiyasi. – Toshkent, 2013. – B. 56.

³ Bamboo: A Versatile Plant with a Rich History.

⁴ Saydazimova U.T., Choy So Yong, Xvan L.B. va boshq. Klassik koreys nasri antologiyasi. – Toshkent, 2013. – B. 56.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Insonlar o‘rtasida amal uchun kurashadigan xudbinlar uchrab turishi jamiyatning rivojiga putur yetkazadi. Rostgo‘y va mard Bambuk ham atrofidagi mana shunday hasadgo‘ylarning qurbaniga aylanadi. Xan davrida Say Lun avlodidan bo‘lgan Qog‘oz Mo‘yqalamni o‘z izmiga bo‘ysundiradi. Bambuk bilan avvalo do‘stona aloqada bo‘lgan Qog‘oz Bambukni amaldan tushirish uchun Qurtni yuboradi. Zindan ish ko‘rgan Qurt Bambukning tagiga suv quyishga muvaffaq bo‘ldi, natijada Bambukni egallab turgan lavozimidan chetlashtirishdi. Ko‘rinadiki, muallif turli xil ijtimoiy tabaqa vakillari, jamiyatdagi yolg‘onchilik, ikkiyuzlamachilik, insonlarning bir-biriga yetkazayotgan jabr-zulmini qoralaydi.

O‘z oilasining obro‘yi va kelajagi uchun qayg‘uradigan insonlar sifatida Bambuk osilasi keltiriladi:

“Ulkan Bambuk Sariq nilufarning qiziga uylanibdi va qizlik bo‘libdi. Shu qiz Bambuk xonim bo‘lib yetishibdi. U bolalikdan bokiralik bilan ajralib turar ekan. Bambuk xonim bilan bir mahallada Badkirdor degan bir kimsa yashar ekan. U betavfiq bir she‘r bitirdi va uni Bambuk xonimga taqdim etibdi. Xonim she‘rni o‘qib jahli chiqibdi: “Erkaklar va ayollar, albatta, bir-biriga o‘xshamaydi, lekin sha’n novdadek nozik va hamma uchun birdek qadrli. Uni bir marta sindirsang, qayta tiklay olmayan!”⁵.

Muallif Bambuk xonim portretini juda yuksak mahorat bilan chizadi:

“Bambuk xonim kundan kunga aqli bo‘lib, xulq-atvorida sobit bo‘lib boribdi. U hamma narsani tushunishga qodir, o‘z gapi bilan barcha shubhalarni tumandek tarqata olar ekan. Og‘ir davrlarda unga irodalilik namunasi bo‘lib mashhur Olg‘ori Meyning shuhrati xizmat qilibdi”⁶.

Bambukning xususiyatlari bevosita sharq ayoli fazilatlarini yodga soladi. Bambukning ingichka barglari ayolning nozik hilqatiga o‘xshaydi. Shunga qaramay, u eng mustahkam va baqavvatdir. O‘simplik sifatida Bambukning ajoyib xususiyati – tuproqni yemirilishdan asrash bo‘lsa, ma’joziy ma’noda u ayollarning o‘z sha’nini asrashi, ya’ni oilasiga bo‘lgan sadoqatini namoyon qiladi. Shuningdek, Bambukdan turli sohalarda foydalanish mumkun. Jumladan, ***Qurilish***: Uy-joylar, ko‘priklar, to‘siqlar, jihoz va dekorativ buyumlarni ishlab chiqarishda ishlatiladi. ***To‘qimachilik***: Bambuk tolalari kiyim-kechak ishlab chiqarishda keng qo‘llaniladi. Bambukdan qog‘oz ishlab chiqariladi. Ba’zi musiqa asboblari bambukdan yasaladi. Bambukdan savatlar, qalamlar, baliq ovlash asboblari va boshqa ko‘plab buyumlar ttayyorlanadi. Bu haqida hikoyada quyidagi satrlarni uchratamiz:

⁵ Saydazimova U.T., Choy So Yong, Xvan L.B. va boshq. Klassik koreys nasri antologiyasi. – Toshkent, 2013. – B. 58.

⁶ Saydazimova U.T., Choy So Yong, Xvan L.B. va boshq. Klassik koreys nasri antologiyasi. – Toshkent, 2013. – B. 58.

“Bambuklar ham harbiy, ham noharbiy xizmatni bajarish uchun yaxshi qobiliyatga ega bo‘lgan ekanlar. Shu bois ularni marosimlarga va musiqa chalishga tekliq qilisharkan, ular to‘qilgan savat, qurbanlik idishi va sibizg‘a bo‘lib xizmat qilishar ekan, hatto kamon o‘qlari va baliq ovlash uchun qurmoq dastasi bo‘lib ham dovruq qozonishgan ekan. O‘z-o‘zidan ravshanki, ularning mayda ishlari haqida ham kitoblarda yozishar ekan”⁷.

E’tibor berib qaralsa, bambuk ishlatilmaydigan sohaning o‘zi yo‘q. Huddi ayol singari. Har bir jabhada ayolga, onaga ehtiyoj seziladi. Qarmoqsiz baliq tutilmaganidek, baliqni yaxshi tutmoq uchun avvalo bardoshli bambuk, farzandni barkamollikda o‘stirish uchun bardoshli ona darkor. Diqqat qaratadigan bo‘lsak bambuk ko‘prik qurishda eng sifatli va zarur xomashyo sanaladi. Oilada ota va farzandlar orasida ayol kishi qaysidir ma’noda ko‘prik vazifasini bajaradi.

Pxesol hikoyalarida Bambuk ma’joziy obrazida bardoshli xalq, sodiq ayolni kashf etamiz. Shuningdek, Bambuk moslashuvchan va egiluvchan xuddi ayolga o‘xshaydi. Chunki ayollarning ham aynan shunday fazilati bor-ki, ular har qanday vaziyatda bardosh bilan moslashishga kuch topa olmadilar. Bambukning ham aynan shu xususiyati uni tabiiy ofatlarga, masalan, zilzilalarga chidamlı qilishda muhim rol o‘ynaydi. Bambuk o‘simgining fazilatlari Li Gyukning “Bambuk xonim” hikoyasida keltirilgan fikrga aynan mos keladi:

“Bambuk xonimning ajdodlari katta xizmatlari bilan nom chiqargan, ularning barcha avlodlari yaxshi iste’dodlarga ega bo‘lgan. Ularning yuksak fazilatlari butun dunyoda madh etilgan – xuddi Bambuk xonimning donoligi singari! Axir u oljanob inson bilan turmush qurgan, odamlar e’tirofini qozongan, biroq, afsuski, o‘zidan zuryod qoldirmay vafot etgan! Osman yo’llarini tushunish mumkun emas, deb bejiz aytishmagan!”.

Bambuk xonimga **“Sodiq ayol”** unvonining berilishi, ayollarning yuksak fazilatlarini namoyon etadi. Ayol kishi o‘z oilasiga sodiq ekan, xuddi bambukdek har tomonlama egiladi, bukiladi, ammo sinmaydi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, sadoqat ko‘p hollarda ishonch, halollik, mehr-oqibat va o‘zaro hurmat bilan bog‘liq. Uzoq muddatli va mustahkam munosabatlar uchun sadoqat juda muhim. Shuningdek sadoqat har bir ayol uchun individualdir va uning hayotiy tajribasi, madaniyati va shaxsiy qadriyatlariga bog‘liq. Albatta Bambukdek sadoqatli ayol – bu bir oila qo‘rg‘onining mustahkam poydevoridir. Ayollarning betakror va nafis fazilatlaridan bo‘lgan latofat va

⁷ Saydazimova U.T., Choy So Yong, Xvan L.B. va boshq. Klassik koreys nasri antologiyasi. – Toshkent, 2013. – B. 57.

go‘zallikning asli ichki go‘zallik deyishimiz mumkun. Chunki, sadoqat bu ichki go‘zallikning yorqin namunasidir.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Солижонов У. Ҳозирги ўзбек ҳикояси: жанр мезонлари, талаб ва имкониятлари / Мўъжизалар сири. – Т.: Адаб. 2013.
2. Saydazimova U.T., Choy So Yong, Xvan L.B. va boshq. Klassik koreys nasri antologiyasi. – Toshkent, 2013.
3. Bamboo: A Versatile Plant with a Rich History